



**MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK"
ASARI**

Roza Shomurodova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek
tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

O'qituvchi: Nafisa Rahmonova

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI asr turkiy dunyo ilm-fanining yirik namoyandasi Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu Lug'otit-turk" asari keng yoritiladi. Asarning yaratilish maqsadi, tilshunoslikdagi ahamiyati, tuzilishi, til va madaniyat uchun tutgan o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlari. Mahmud Koshg'ariy, Devonu Lug'otit-turk, turkiy tillar, tilshunoslik, tarixiy lug'at.

Kirish. Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad al-Koshg'ariy (Mahmud al-Koshg'ariy, Mahmud Koshg'ariy, Koshg'ariy, ya'ni Koshg'arlik Mahmud; 1028-yoki 1029-yil Issiqko'l janubi-sharqidagi Barsxon shahrida tug'ilgan — 1101- yoki 1126-yilda Koshg'ar yaqinida — O'palda vafot etgani taxmin qilinadi) — turkiy tilshunos olim, filolog.

Turkiy xalqlarning arab tilidagi ilk ensiklopediyasi — „Devonu lug'otit turk“ (1072—1074) muallifi, turkshunoslik ilmining asoschisi. „Devonu lug'otit turk“da turkiy xalqlarning tillari, og'zaki ijodi, tarixi, yashash joylari va turmushi aks etgan bo'lib, asar turkiy xalqlar tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Asarning o'zida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, 1075—1094-yillarda asarning to'rt nashrini tayyorlagan. Asarning ilk nusxasi yo'qolgan. 1266-yilda ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi esa saqlanib qolgan. Asarda Koshg'ariy shunday deb yozadi:

„Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va vasl deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. ... Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim. ... So'ngra



men har bir qabilaga mansub soʻzlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qoʻllanishini qisqacha izoqlab koʻrsatish uchun alohida yoʻl tutdim. Bu misol tariqasida turklarning tilida qoʻllanilib kelgan sheʼrlaridan, shodlik va motam kunlarida qoʻllanadigan hikmatli soʻzlaridan, maqollaridan keltirdim.“

„Devonu lugʻati-t-turk“ („Turkiy tillar devoni“) asarini muallif xalifa Abul Qosim Abdulloh ibn Muhammad al-Muqtadiy bi-Amrillohga tuhfa qilgan.

„Devonu lugʻotit turk“ asarining arabcha matni 1915—1917-yillarda uch jildda Istanbulda, mukammal oʻzbekcha sharhli tarjimasi S. M. Mutallibov tomonidan amalga oshirildi va 1960—1963-yillarda Toshkentda chop etilgan. 6727 ta lugʻat maqolasida turkiy urugʻ, qabilalarning tili, adabiyoti, tarixi, urf-odatlari boʻyicha noyob maʼlumotlar jamlangan. Kitob hijriy 466-yili yozilgan, bizga hijriy 664-yili kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy koʻchirgan qoʻlyozma yetib kelgan. „Devonu lugʻat at-turk“ asarining usmonli turkcha 1939—1941-yillarda B.Atali, inglizcha 1982—1985-yillarda R.Dankoff bilan J.Kelli, uygʻurchasi esa 1981—1984-yillarda bir guruh tarjimonlar tomonidan amalga oshirilib, chop ettirilgan.

Ushbu asar muqaddima va lugʻat qismdan iborat boʻlib, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotida alohida oʻrinni egallaydi. Chunki, olim asarga dunyo xaritasini ham ilova qiladi va Kichik Osiyodan to Xitoy hududlarigacha choʻzilib ketgan hududlarda yashagan turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, etnogenezi, urf-odatlari, turmush tarzi va madaniyati toʻgʻrisida gʻoyatda qimmatli maʼlumotlarni beradi. Asarda turkiy qavm-urugʻlar: qipchoq, oʻgʻuz, yamak, boshqirt, basmil, qay, yaboku, tatar, qirgʻiz, chigil, yagʻmo, tuxsi, igroq, jaru, jambil, uygʻur, tangut, tabgʻochlardan tashqari fors, arab, xitoy va rus xalqlari haqida ham maʼlumotlar bor. Shunisi muhimki, „Devonu lugʻotit turk“ shaharlarda soʻgʻd-turk ikki tilliligi rasmiy holat boʻlganligi Mahmud Koshgʻariyning asarida ham qayd etilgan.

“Devonu Lugʻotit-turk” — nafaqat lugʻat, balki tilshunoslik, etnografiya, tarix, adabiyot va madaniyat borasida ham noyob manba hisoblanadi. Bu asar orqali biz XI asrdagi turkiy xalqlarning hayot tarzi, urf-odatlari, dunyoqarashi va adabiy merosini bilib olamiz. Shuningdek, Mahmud Koshgʻariy turkiy tillarni arab tilidan



kam emasligini ilmiy asosda ko'rsatgan. U o'z asarida turkiy so'zlarning yasalishi, grammatikasi, sinonimiya va frazeologiyasiga oid ko'plab misollar keltiradi.

“Devonu Lug‘otit-turk” — turkiy tillar bo'yicha yozilgan birinchi ensiklopedik lug‘at bo'lib, u quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir: asarda 7500 dan ortiq turkiy so'z va ularning arab tilidagi izohi keltirilgan. Turkiy tillarning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Ko'plab she'riy parchalar, maqollar, topishmoqlar, urf-odatlar, geografik va tarixiy ma'lumotlar ham keltirilgan. Har bir so'z misollar bilan, she'riy namunalar yordamida izohlanadi. Asar tarkibida dunyodagi birinchi turkiy til xaritasi ham mavjud. Bu lug‘at o'z davrining til holati, turkiy qabilalar va ularning yashash hududlari haqida noyob tarixiy ma'lumotlar beradi.

Xulosa. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu Lug‘otit-turk” asari — o'zbek va umuman turkiy xalqlar uchun bebaho ilmiy va madaniy merosdir. Bu asar orqali turkiy tillarning qadimiyligi, adabiy salohiyati va boyligi isbotlangan. Bugungi kunda ham ushbu asar tilshunoslar, tarixchilar va madaniyatshunoslar tomonidan chuqur o'rganilmoqda va qadrlanmoqda. U faqat ilmiy asar emas, balki milliy iftixor timsolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu Lug‘otit-turk — nashrlar asosida.
2. G'afurov Q. Turkiy tillar tarixi. — Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Muhammadjonov A. O'zbek tili tarixi. — Toshkent: Fan, 2012.
4. Karamatov A. Mahmud Koshg'ariy — buyuk tilshunos. — Toshkent: O'qituvchi, 1997.
5. www.ziyouz.uz — O'zbek madaniy merosi va adabiyoti portali.
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Koshg%CA%BBariy>
7. “Koshg'ariy”. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.